

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

NAVOIY QIT'ALARIDA POETIK OBRAZ MASALASI

Obidaxon FAYZULLAYEVA,
Guliston davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
obidaxonfayzullayeva@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18886704>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida alohida o'ringa ega bo'lgan qit'alari badiiyati, ularda obrazlilik masalasining aks ettirilishi jihatiga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan. Mutafakkir qit'alarining badiiy xossalari she'r mazmuniga mos tarzda aks ettirilgan turli toifa kishilar, narsalar va tushunchalar obrazlari orqali ifodalanilayotganligi va qit'a mazmuniga mos talqin qilinganligi tahlillar yordamida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: obrazlilik, qit'a, tasvir obyekti, poetik mushohadakorlik, badiiy topilmalar, tushuncha va predmet obrazlar va h.k.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественное выражение китъи, занимающих особое место в творчестве Алишера Навои, и осмысление в них вопроса образности. Анализируется, что художественные свойства китъи мыслителя выражаются через образы различных категорий людей, предметов и понятий, отраженные в соответствии с содержанием стихотворения и интерпретированные в соответствии с содержанием китъи.

Ключевые слова: образность, китъа, образ изображения, поэтическое наблюдение, художественные выводы, образы понятий и предметов и др.

Annotation. This article focuses on the artistic expression of the kit'as, which have a special place in the work of Alisher Navoi, and the reflection of the issue of imagery in them. It is analyzed that the artistic properties of the thinker's kit'as are expressed through the images of various categories of people, objects and concepts, reflected in a way that is kit'a with the content of the poem, and are interpreted in accordance with the content of the kit'a.

Key words: imagery, kit'a, object of image, poetic observation, artistic findings, images of concepts and objects, etc.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy dahosiga ehtiro, daho ijodkor asarlarining cheksiz tadqiqi ushbu serqirra san'atkorning mangukka daxldor asarlarining dunyo tamaddunidagi o'ziga xos o'rni mavjudligini dalolatlovchi jihatlardandir. Navoiy asarlari ma'nolar ganjinasi bo'lib, undagi hali ko'rilmagan bebaho dur-u javohirlarni saralab ko'rsatish bugungi navoiyshunos va shoir ijodi ixlosmandalarining galdagi vazifalaridandir. Shu ma'noda Alisher Navoiyning serqirra ijod mahsullaridan nazm silsilasida o'z o'rniga ega bo'lgan qit'alariga e'tibor qaratish ma'qul ko'rinadi.

Alisher Navoiy qit'alari uning aksar devonlarida mavjud, Xususan, "Badoye' ul-bidoya" to'plamida 46 ta, "Devoni Foni"da 64 ta, „Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

210 tani tashkil etib, jami qit'alari miqdori 300 dan ortiq bo'lgan ijodkorning ushbu janr taraqqiyotidagi o'rnini tasavvur qilish qiyin emas. [1]

Qit'a [lirik](#) janr sifatida [qasida](#) va [g'azaldan](#) oldin paydo bo'lganligi ma'lum bo'lib, tuzilishiga ko'ra g'azalga yaqin turadi, lekin qit'ada [matla'](#) qofiyalanmaydi (ab. vb, gb...), hajmi ham qat'iy emas, mazmun talabiga ko'ra, [ikki bayt](#) va undan ortiq (xatto 19 baytgacha ham) bo'lishi mumkin. [3] Shuningdek, qit'alar alohida, yaxlit bir asar maqomida bo'lib, biron bir [mavzuga](#) bag'ishlanishi bilan ahamiyatlidir. Qit'ada [shakl va mazmun erkinligi](#) boshqa lirik asarlarga nisbatan ustun, mavzu doirasi ham kengroq bo'lishi uning hajman ixchamligi bilan bog'liq. Lekin ushbu ixcham asarlarning har birida o'z obrazlari mavjud bo'lib, u qit'aning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib shakllantirilgan bo'ladi. [3]

Navoiy qit'alarida [diniy-falsafiy](#), [ijtimoiy-siyosiy](#), [axloqiy-ta'limiy](#) va boshqa ko'plab mavzularni qamragan, hatto ayrim qit'alar [hajv](#) va hazil-mutoyiba tarzida ham ifodalanganligini kuzatish mumkin. [6] Qit'alarda obrazlar ham mazmunga mos. Xususan, Navoiyning "G'azalda uch kishi tavridur..." deb boshlanuvchi qit'asida aynan tavsiflanayotgan uch kishi, ya'ni Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiylarning g'azalnavislik mahorati shoir tomonidan alohida ehtirom bilan e'tirof etilgan. Ulardan birini "mo'jizabayonliq, sohiri hind" (Xusrav Dehlaviy), ikkinchisini "isonafasliq rindi Sheroz" (Hofiz Sheroziy), uchinchisini esa "orifi Jom" (Abdurahmon Jomiy)lar nazarda tutilgan. Bundan ko'rinadiki, Navoiyning ushbu qit'asi ustoz ijodkorlar – salaflarga ehtirom mazmunini aks ettirgan.

Shoirning "Og'zingga kirgan takallum rishtasi" deb boshlanuvchi qit'asida so'zning cheksiz qudratiga tayanib ijod etgan san'atkorning aynan so'zning mazmuniga putur yetkazmaslik, "oz so'z – soz so'z" naqliga amal qilish zarurati xususida fikr yuritgan.

Og'zingga kirgan takallum rishtasin chekma uzun,
Kim bu ishtin saringunluq yuzlanib, nuqson qilur,
Ko'rki, chun og'zig'a kirgan rishtasig'a berdi tul,
Ankabut ul rishtadin har dam nigunsor osilur. [4]

Ya'ni, har kimsa og'zidan chiqayotgan so'zlarning uzayishi va bema'nilashishiga yo'l qo'ysa, yoki xatoga yo'l qo'ysa, og'zidan chiqayotgan so'zlarning uning chuvalgan ipiga o'rgamchik osilgandek tasavvur hosil bo'ladi. Inson so'zni muxtasar qilish orqali o'ziga dushman orttirmaydi, Har ne kelsa tildan kelur naqli ham shu o'rinda o'rinli, deyish mumkin. Bu yerdagi ankabut – o'rgimchak obrazi kishining nojo'ya so'zi orqali o'ziga orttirgan balosi, dushmani ma'nosida kelmoqda. Yana bir qit'asida Navoiy "oz so'z – soz so'z" naqlining davomi sifatida, oz so'zlamoqlikning foydasi xususida so'z yuritadi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Navoiy, tiling asrag'il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.
... Necha tojvardur kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag'ma tortar xurus. [5]

Bu qit'ada asosiy poetik obraz – ko'p so'zlovchi kishi. Garchi shoir o'ziga so'zlash shaklida unga murojaat qilayotgan bo'lsa-da, lekin obrazdagi umumlashmalik jihatini payqash qiyin emas. Shuningdek, har doimgidek, oxirgi bandedagi fikrni asoslash, dalillash uchun keltiriladigan hayotiy misolda garchi tojdor bo'lsa-da, xo'rozni insonlar noo'rin qichqirgani uchun boshini kesishlari haqidagi misoli ham mazmun-mohiyat uchun o'rinlidir.

Navoiy ijodida so'zning ma'nosiga alohida ahamiyat qaratilishi sir emas. Xususan, yana bir qit'ada aynan so'z va noqil obrazlari tasvir obyektiga aylantirilgan.

Chun g'araz so'zdin erur ma'ni ango,

Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er.

So'zchi holin boqma, boq so'z holini,

Ko'rma kim der oni, ko'rgilkim na der. [4]

Ya'ni so'zlaguvchi – noqil kim ekanligiga qarab emas, u aytayotgan so'zlarning ma'nosiga qarab unga baho berish ham insonning kim ekanligini ochiq-oshkor ko'rsatuvchi jihatlardan ekanligi daho shoir tomonidan alohida ta'kidlangan.

Yana bir qit'asida shoir vaqt tushunchasini asosiy tasvir obyektiga aylantiradi.

Yuz tuman ming pora ko'nglum diqqati har necha bor,

Lekin ermasdur ani jam' aylamak mumkin bu kun,

Tog'ni qum aylamaklik sa'y ila bo'lg'ay, valek

Shishayi soat qumining rishtasi bo'lmas tugun. [4]

Ya'ni, inson ko'nglidagi kechimlar va uning xayolot olami shunchalar betizginki, uning yuz ming bo'laklarga bo'linishi tabiiy hol. Buncha miqdordagi bo'laklarni jamlab, yaxlilashning hech ham iloji yo'q. Lekin sa'y-harakat bilan tog'ni maydalab, qumga aylantirsa bo'ladi, shisha soatdan tushayotgan qumning ip ko'rinishidagi shaklini tugun qilish, ya'ni to'xtatish imkonsiz. Bu o'rinda shoir inson omili ta'sirisiz yuz beradigan ikki jihatga e'tiborni qaratadi, ya'ni, xayolot olamidagi betizginlik holatini boshqarib bo'lmagani kabi vaqtni to'xtatish beimkon ekanligini ko'rsatadi. Bunday yetakchi mazmun inson imkoniyatlarining chegaralanganligiga e'tibor qaratish orqali vaqtdan unumli foydalana bilishni yana bir bor uqtirish.

Ne toli'durki, har kimin desam yor,

Manga ul oqibat bo'lur badandesh.

Biravdur gar ani desam ko'zumsen,

Chekar mujgon kebi qasding'a yuz nish. [5]

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ushbu qit'ada Alisher Navoiy ijtimoiy munosabatlar, xususan, insonlar orasidagi ishonch masalasiga to'xtalib, bir kishining boshqasiga ishonch bildirib, uni ko'rar ko'zi darajasida ardoqlashi va evaziga uning o'ziga nisbatan "badandesh" (badniyat) bo'lishi, yana "yuz nish" urilishi bilan javob qaytarishi orqali undan ko'p aziyat chekishi haqida fikr yuritadi. Bu qit'adagi asosiy tavsiflanayotgan obraz yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytargan shaxs bo'lib, she'rda Navoiy uni "har kim" va "birav" deb ataydi. Bu o'rindagi ushbu obrazni ochib berish uchun qo'llanilgan yor – badandesh (do'st-yomon niyatli kishi, dushman) va ko'z – mujgon (mumtoz adabiyotda yorning ko'zlarini to'sish yoki oshiqqa qasd qilish ma'nosidagi kipriklar – nishtarlar ma'nosida) so'zlarining kelishi o'ziga xos poetik topilmalar deyish mumkin.

Bir qit'ada esa shoir himmat ahli obrazini yaratadi va ularning o'ziga xos jihatlari sifatida sarv kabi tikqomat, to'g'ri va ozodaligi, shuningdek, xuddi arig'dagi suv kabi xokisorligi-yu, himmat yo'lida tinmaslik unga taqdir qilinganligi xususida so'z yuritadi.

Himmat ahliki erur tuzluk aro sarv kebi,

Dahr bo'stonida sarsabzduru ozoda.

Ulki, su yanglig' erur past nihod-u kajrav,

Chekib afg'on anga tinmaslig' erur omoda. [5]

Umuman, Alisher Navoiy yuqorida ko'rib o'tilgan qit'alari ehtirom, falsafa, axloq, ma'naviyat, maishiy hayot, dunyoqarashlar kabi turfa mazmunlarni aks ettirgan. Ularda shoir yashagan davrning mavjud muammolari, falsafiy-axloqiy qarashlari aks ettirilgan bo'lib, qit'alar bugungi kun uchun ham dolzarb ekanligi bilan ham shoir asarlarining abadiyatga daxldorligini isbotlamoqda.

Navoiy qit'alari mazmunan ikki qismni tashkil etadi. Birinchi qismda shoir mavzuning yoki mavjud muammoni ushbu jarayonga taalluqli obraz vositasida aks ettirsa, she'rning ikkinchi qismida ushbu ilgari surilayotgan fikrni asoslash uchun biror hayotiy voqea keltirilishi uchun yana boshqa obrazlardan foydalanadi. Shuning uchun ham yuqorida tahlilga tortilgan qit'alarda turfa toifa kishilari, predmetlar va tushunchalar ham obrazlar sifatida o'rganildi. Ehtirom mazmunidagi qit'ada ustozlar timsollari, falsafiy-axloqiy qit'alarda "noqil", "notiq", "ko'p so'zlovchi kishi", "badandesh" kabi inson obrazlari bilan birga "vaqt" kabi mavhum tushunchalardan ham unumli foydalanilgani tahlillardan ayonlashdi.

Alisher Navoiy dahosiga ehtirom uning poetik olamiga kirgan sari, undagi turfa evrilishlar, murakkab poetik mushohadakorlik va noyob poetik topilmalarni o'rgangan sari kuchayaveradi. Buyuk so'z san'atkor cheksiz ma'nolar olamiga safar har bir tadqiqotchining bu daho ijodkor mahoratiga hayratini oshirishda davom etadi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/alisher-navoiy-qitalar-xurshid-davron-sharh.html>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qit%ca%bca_\(lirik_janr\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qit%ca%bca_(lirik_janr))
3. Alisher Navoiy. Qaro ko'zum. – T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 759-761 betlar.
4. Alisher Navoiy. MAT. 3-jild. – T., Fan, 1988. – 550-567-betlar.
5. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. – T., Fan, 2007. – 224 b.
6. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. Science and innovation, 1(B5), 231-236.
7. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6), 394-402.
8. Fayzullayeva, O. X. (2020). Diversity in writing Uzbek sonnets. Theoretical & Applied Science,(4), 627-633.
9. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 332-340.
10. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.
11. Fayzullayeva, O. H. (2022). Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 20-29.
12. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. Modern Science and Research, 3(1), 1-7.
13. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
14. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.